QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.156

UDK 372.881.111.1:81’25

LINGVO-TRANSLOTOLOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI CHET TIL O‘QITUVCHILARINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Tursunova Muhabbat Ikromovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz filologiyasi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada chet til o‘qituvchilarining lingvo-translotologik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Til-lararo qiyoslash, tarjima, pragmatik tahlil va madaniyatlararo muloqotning ta’lim jarayonidagi ahamiyati ingliz va o‘zbek tillari misolida tahlil qilinadi. O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *lingvo-translotologik kompetensiya, chet til o‘qitish metodikasi, tarjima kompetensiyasi, tillararo qiyoslash, pragmatik tahlil, madaniyatlararo muloqot, kommunikativ yondashuv.*

Abstract. The article examines the theoretical and practical foundations of developing foreign language teachers’ linguo-translatological competencies. The importance of cross-linguistic comparison, translation, pragmatic analysis, and intercultural communication in the educational process is analyzed through examples from English and Uzbek. Methodological recommendations aimed at enhancing teachers’ professional competence are proposed.

Keywords: *linguo-translatological competence, foreign language teaching methodology, translation competence, cross-linguistic comparison, pragmatic analysis, intercultural communication, communicative approach.*

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические основы развития лингвотранслотологических компетенций преподавателей иностранных языков. На примере английского и узбекского языков анализируется значение межъязыкового сопоставления, перевода, прагматического анализа и межкультурной коммуникации в образовательном процессе. Предлагаются методические рекомендации, направленные на повышение профессиональной компетентности преподавателей.

Ключевые слова: *лингвотранслотологическая компетенция, методика преподавания иностранных языков, переводческая компетенция, межъязыковое*

сопоставление, прагматический анализ, межкультурная коммуникация, коммуникативный подход.

Kirish. Bugungi kunda chet til o‘qituvchisining kasbiy faoliyati faqat grammatik qoidalarni tushuntirish, yangi so‘zlarni o‘rgatish va o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish bilan cheklanmaydi. O‘qituvchi til birliklarining ma’nosini, ularning nutqiy vaziyatda qo‘llanish xususiyatlarini, milliy-madaniy mazmunini hamda bir tildan ikkinchi tilga o‘tkazishda yuzaga keladigan muammolarni ham anglashi lozim. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi grammatik, leksik va pragmatik tafovutlarni tushuntirishda tilshunoslik hamda tarjimashunoslik bilimlarining o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Chet til ta’limida tarjimadan foydalanish masalasi uzoq vaqt davomida turlicha baholangan. Ayrim metodik yondashuvlarda ona tilidan foydalanish o‘rganilayotgan tilda bevosita fikrlashga to‘sqinlik qiluvchi omil sifatida qaralgan. Biroq Guy Cook tarjimani til o‘rganish jarayonidan butunlay chetlashtirish zarurligi haqidagi qarashlarni qayta ko‘rib chiqib, uni tilni anglash, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va o‘quvchilarning ehtiyojlariga javob berishda foydalanish mumkinligini asoslaydi [1]. Bu fikr tarjimani har bir darsning markaziga qo‘yishni emas, balki uni aniq ta’limiy maqsadga muvofiq qo‘llashni anglatadi.

Yevropa Kengashining Common European Framework of Reference for Languages: Companion Volume hujjatida til ta’limida mediativ faoliyatga alohida o‘rin berilgan. Mazkur yondashuvda o‘rganuvchining matn mazmunini boshqalarga tushuntirishi, til va madaniyatlar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etishi hamda ma’noni qayta ifodalashi muhim hisoblanadi [2]. Demak, zamonaviy chet til o‘qituvchisi tilni bilish bilan birga, tillararo va madaniyatlararo vositachilik vazifasini ham bajara olishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, lingvo-translotologik kompetensiyalarni rivojlantirish chet til o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Lingvo-translotologik kompetensiya tushunchasini tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan izohlash mumkin. Ushbu maqolada mazkur tushuncha chet til o‘qituvchisining til birliklarini qiyosiy tahlil qilish, ularning ma’no va uslubiy xususiyatlarini aniqlash, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni izohlash hamda olingan natijalarni ta’lim jarayonida qo‘llash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Bu kompetensiyani faqat so‘zlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish mahorati bilan tenglashtirish mumkin emas. Chunki tarjima jarayonida grammatik tuzilish, kontekst, nutqiy maqsad, uslub va madaniy omillar ham hisobga olinadi.

D. Hymes kommunikativ kompetensiya tushunchasini ishlab chiqish orqali til bilishni faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatgan [3]. Uning qarashlari chet til o‘qituvchisidan til birliklarining muayyan vaziyatda qanday va qaysi maqsadda qo‘llanishini ham tushuntirishni talab qiladi. Masalan, ingliz *tilidagi Could you open the window*? gapi grammatik jihatdan savol shaklida tuzilgan bo‘lsa-da, uning asosiy kommunikativ vazifasi iltimos bildirishdan iborat. Uni o‘zbek tiliga «*Siz derazani ocha olarmidingiz*?» deb so‘zma-so‘z o‘girish mumkin, ammo tabiiy muloqotda «*Iltimos, derazani ochib yubora olasizmi?*» yoki «*Derazani ochib yuborasizmi*?» kabi variantlar vaziyatga qarab

maqbulroq bo‘lishi mumkin. Ushbu misolda o‘qituvchi uchta masalani tushuntirishi lozim: grammatik shakl, nutqiy maqsad va o‘zbek tilidagi tabiiy ifoda. Tarjimaviy tahlil til o‘rganuvchining pragmatik sezgirligini ham rivojlantiradi.

Tarjimashunoslikda ham kompetensiya masalasi alohida tadqiq etilgan. PACTE tadqiqot guruhi tarjima kompetensiyasini bir nechta o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat murakkab tizim sifatida o‘rgangan. Ularning modelida ikki tilni bilish bilan birga, tarjimaviy bilimlar, instrumental resurslardan foydalanish, muammolarni hal etish strategiyalari va qaror qabul qilish jarayonlari ham e’tiborga olinadi [4].

Mazkur modelni chet til o‘qituvchilarining tayyorgarligiga moslashtirish mumkin. Bunda o‘qituvchi:

- til birliklarining lug‘aviy va grammatik ma’nosini aniqlaydi;
- birlikning kontekstdagi vazifasini belgilaydi;
- bir nechta tarjima variantini qiyoslaydi;
- tanlangan variantning sababini ilmiy asoslaydi;
- ushbu tahlil natijasini o‘quv mashg‘ulotida qo‘llaydi.

Shu tariqa lingvo-translotologik kompetensiya til bilimi, tarjimaviy tafakkur va metodik mahoratni birlashtiruvchi kasbiy qobiliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Ingliz va o‘zbek tillarining grammatik tuzilishidagi farqlar o‘quvchilarning xatolarida yaqqol ko‘rinadi. Shu sababli o‘qituvchi tillararo qiyoslashdan foydalanib, xatoning sababini aniqlashi va uni bartaraf etishga yo‘naltirilgan mashqlar tuzishi mumkin.

Masalan, ingliz tilida egalik munosabati quyidagicha ifodalanadi:

My brother’s book is on the table.

O‘zbek tilida ushbu gap «Akamning kitobi stol ustida» shaklida beriladi. Ingliz tilida egalik munosabati otga qo‘shiladigan apostrof va s orqali ifodalansa, o‘zbek tilida qaratqich kelishigi hamda egalik qo‘shimchasi muhim vazifa bajaradi. Ushbu misol asosida o‘qituvchi o‘quvchilarga ikki tildagi egalik munosabatining ifodalanish usullarini taqqoslashni topshirishi mumkin. Bunda asosiy e’tibor qoidalarni yodlashga emas, balki ularning gap tarkibida qanday ishlashini anglashga qaratiladi.

Ikkinchi misolda:

I have lived here for five years.

Ushbu gapni «*Men bu yerda besh yildan beri yashayman*» deb tarjima qilish tabiiydir. Ingliz tilida hozirgacha davom etayotgan holat Present Perfect shakli orqali ifodalansa, o‘zbek tilida davomiylik «*-dan beri*» birikmasi va hozirgi zamon shakli orqali beriladi. Agar o‘qituvchi faqat grammatik shakllarning tashqi o‘xshashligiga tayansa, o‘quvchilarda ingliz va o‘zbek zamon tizimlari bir xil ishlaydi, degan noto‘g‘ri tasavvur paydo bo‘lishi mumkin. Qiyosiy tahlil esa ma’noni saqlash uchun tillar turli grammatik vositalardan foydalanishini ko‘rsatadi.

P. Newmark tarjimada kommunikativ maqsad va matnning qabul qiluvchiga ta’sirini hisobga olish muhimligini ta’kidlaydi [5]. Uning yondashuvi o‘qituvchi uchun bir necha tarjima variantini baholashda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, *It is raining cats and dogs* iborasini «*Mushuklar va itlar yog‘ayapti*» tarzida tarjima qilish grammatik jihatdan tushunarli

bo‘lishi mumkin, ammo ingliz tilidagi idiomatik ma’noni ochib bermaydi. «*Juda qattiq yomg‘ir yog‘yapti*» varianti esa xabarning asosiy mazmunini saqlaydi.

Bu misolda o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savollarni berishi mumkin:

1. Iboraning so‘zma-so‘z ma’nosi nima?
2. Uning haqiqiy kommunikativ ma’nosi qanday?
3. O‘zbek tilida shu ma’noni qaysi vositalar bilan ifodalash mumkin?
4. Qaysi variant muayyan nutqiy vaziyatga mos keladi?

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning lug‘aviy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ma’noni kontekst asosida anglash ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

Tildagi ayrim birliklar lug‘aviy ma’nodan tashqari ijtimoiy munosabat, hurmat, masofa va muloqot ishtirokchilarining maqomini ham ifodalaydi. Shuning uchun tarjima jarayonida madaniy va pragmatik xususiyatlarni e’tiborga olish zarur. Masalan, ingliz tilidagi *Would you mind waiting a moment*? gapini «*Bir oz kutib tura olasizmi?*» deb ifodalash mumkin. Biroq muayyan vaziyatda «*Iltimos, bir oz kutib tursangiz*» varianti muloyimlik darajasini yaxshiroq saqlashi mumkin. Bu yerda tarjimaning maqsadi har bir grammatik elementga alohida muqobil topish emas, balki muloqotdagi iltimos ma’nosi va munosabatni saqlashdir.

J.House tarjimani manba matn va tarjima matni o‘rtasidagi pragmatik hamda funksional munosabatlar nuqtayi nazaridan o‘rgangan [6]. Uning tadqiqotlari tarjimada faqat lug‘aviy muvofiqlik bilan cheklanmasdan, matnning vazifasi va kontekstini ham hisobga olish zarurligini tushunishga yordam beradi. Chet til darsida ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun o‘qituvchi bir xil mazmunni turli ijtimoiy vaziyatlarda ifodalashni taklif qilishi mumkin. Masalan, talabaning o‘qituvchiga murojaati, do‘stlar o‘rtasidagi iltimos va rasmiy xatdagi so‘rov shakllari taqqoslanadi. Natijada o‘quvchi bir xil grammatik shakl har qanday vaziyatda bir xil ta’sir ko‘rsatmasligini anglaydi. Bu esa uning madaniyatlararo muloqotga tayyorligini oshiradi.

Yevropa Kengashining CEFR Companion Volume hujjatida mediativ faoliyat matnni boshqalarga tushuntirish, g‘oyalarni qayta ifodalash va til-madaniyat to‘siqlari orqali muloqotni ta’minlash bilan bog‘lanadi [2]. Mazkur yondashuv lingvo-translotologik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ham metodik imkoniyatlar yaratadi.

Chet til o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun tarjimani alohida mashq sifatida emas, balki til hodisalarini anglashga xizmat qiluvchi vosita sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Birinchi usul - qiyosiy tarjima tahlili. O‘qituvchi o‘quvchilarga bir gapning ikki yoki uch xil tarjima variantini taqdim etadi. Ulardan qaysi variant ma’no, uslub va nutqiy vaziyatga mos kelishini asoslash so‘raladi.

Masalan:

He finally broke the ice.

1. U nihoyat muzni sindirdi.
2. U nihoyat suhbatni boshlab, noqulaylikni bartaraf etdi.
3. U nihoyat muzni parchaladi.

Kontekstga qarab, ikkinchi variant idiomaning ko‘chma ma’nosini ifodalaydi. Birinchi va uchinchi variantlar esa faqat voqea haqiqiy muz bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatda to‘g‘ri kelishi

mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilardan ma’noni belgilaydigan kontekstni topishni talab qilishi lozim.

Ikkinchi usul - tarjimaviy xatolarni tahlil qilish. O‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni faqat to‘g‘ri javobni berish orqali tuzatish yetarli emas. Xato sababini aniqlash ham muhim. Masalan, o‘zbek tilidagi gap tuzilishini ingliz tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish natijasida yuzaga kelgan xatolar sintaktik qiyoslash orqali tushuntiriladi.

Uchinchi usul - qayta ifodalash va mediativ topshiriqlar. Bunda o‘quvchi ingliz tilidagi qisqa matnni o‘qiydi va uni o‘zbek tilida boshqa kishiga tushuntiradi yoki aksincha, o‘zbekcha ma’lumotni ingliz tilida qayta bayon qiladi. Asosiy mezon so‘zma-so‘z tarjima emas, balki muhim ma’lumotlarning saqlanishi va qabul qiluvchiga tushunarli yetkazilishidir.

To‘rtinchi usul - vaziyatli rolli o‘yinlar. Masalan, xorijlik mehmonga universitet qoidalarini tushuntirish, mehmonxonada murojaat qilish yoki rasmiy uchrashuvni tashkil etish kabi vaziyatlar tanlanadi. O‘quvchilar nafaqat til vositalarini, balki murojaat shakli, hurmat va muloyimlikni ham hisobga oladilar.

Beshinchi usul - tarjima qarorlarini refleksiv baholash. O‘quvchi yoki o‘qituvchi tanlagan variantning sababini qisqacha yozadi: qaysi ma’no saqlandi, qaysi grammatik o‘zgarish zarur bo‘ldi, nima uchun aynan shu birlik tanlandi? Bu jarayon mustaqil tahlil va kasbiy mulohaza yuritish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

G.Cookning tarjimani ta’limda qo‘llash haqidagi qarashlari mazkur usullarning nazariy asosini mustahkamlaydi. Biroq tarjima har bir mashg‘ulotda majburiy vositaga aylanmasligi kerak. Uning samarasi ta’lim maqsadi, o‘quvchilarning til darajasi va topshiriq mazmuniga bog‘liq [1]. Yuqoridagi nazariy qarashlar va amaliy misollar asosida lingvo-translotologik kompetensiyalarni rivojlantirishning quyidagi metodik modeli taklif etiladi.

Birinchi bosqich - diagnostik bosqich. O‘qituvchining ingliz va o‘zbek tillaridagi grammatik, leksik va pragmatik farqlarni izohlash qobiliyati aniqlanadi. Buning uchun qisqa tarjima topshiriqlari, xatolarni tahlil qilish va og‘zaki tushuntirish usullaridan foydalanish mumkin.

Ikkinchi bosqich - nazariy-qiyosiy bosqich. O‘qituvchilarga tarjima ekvivalentligi, kontekst, pragmatik ma’no, idiomalar, grammatik qayta tuzish va madaniy tafovutlar bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Bunda nazariy ma’lumotlar amaliy misollar bilan birga beriladi.

Uchinchi bosqich - amaliy-metodik bosqich. O‘qituvchilar qiyosiy tahlil, tarjimaviy xatolarni aniqlash, matnni soddalashtirish va mediativ topshiriqlarni ishlab chiqadilar. Tayyorlangan topshiriqlar dars jarayonida sinovdan o‘tkaziladi.

To‘rtinchi bosqich - refleksiv-baholash bosqichi. O‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilib, qo‘llangan usulning natijalarini baholaydi. O‘quvchilarning xatolari, mustaqil fikrlashi, ma’noni qayta ifodalashi va nutqiy vaziyatga mos til birliklarini tanlashi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida olinadi.

Ushbu modelni amalga oshirishda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

Ushbu modelni amalga oshirishda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

Kompetensiya yo‘nalishi	Baholash ko‘rsatkichi
Lingvistik	Grammatik va leksik tafovutlarni aniqlash

Tarjimaviy	Ma’noni kontekstga muvofiq qayta ifodalash
Pragmatik	Nutqiy maqsad va uslubni saqlash
Madaniyatlararo	Murojaat va muloqot me’yorlarini hisobga olish
Metodik	Tahlil natijalarini dars topshirig‘iga aylantirish
Refleksiv	Tanlangan tarjima va metodik qarorni asoslash

Taklif etilayotgan model nazariy va metodik jihatdan asoslangan bo‘lsa-da, uning samaradorligini qat’iy tasdiqlash uchun pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish talab etiladi. Bunda tajriba va nazorat guruhlarining natijalarini qiyoslash, dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlarni o‘lchash hamda olingan ma’lumotlarni statistik tahlil qilish mumkin.

Mazkur yondashuvning muhim jihati shundaki, o‘qituvchi tayyor tarjima variantlarini taqdim etuvchi shaxs bo‘lib qolmaydi. U o‘quvchilarni til hodisalarini kuzatishga, variantlarni qiyoslashga va o‘z qarorlarini dalillar asosida tushuntirishga yo‘naltiradi. Natijada tilni o‘rganish jarayoni mexanik tarjimadan mazmunli tahlil va mustaqil fikrlashga tomon rivojlanadi.

Xulosa. Lingvo-translotologik kompetensiyalarni rivojlantirish chet til o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Tillararo qiyoslash, tarjimaviy tahlil, pragmatik yondashuv va madaniyatlararo muloqotni birgalikda qo‘llash o‘qituvchiga til birliklarining nafaqat grammatik shaklini, balki kontekstdagi ma’nosi va kommunikativ vazifasini ham tushuntirish imkonini beradi. Shunday qilib, lingvo-translotologik kompetensiyalarni rivojlantirish tarjima va tilshunoslik bilimlarini chet til o‘qitish amaliyoti bilan bog‘lashga, o‘qituvchining tahliliy tafakkurini rivojlantirishga hamda ta’lim jarayonida til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Cook G. Translation in Language Teaching: An Argument for Reassessment. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 177 p.

2. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. – 278 p.

3. Hymes D. H. On Communicative Competence // Sociolinguistics: Selected Readings / Ed. by J. B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.

4. PACTE Group. Building a Translation Competence Model // Triangulating Translation: Perspectives in Process Oriented Research / Ed. by F. Alves. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2003. – P. 43–66.

5. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York; London: Prentice Hall, 1988. – 292 p.

6. House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. – London; New York: Routledge, 2015. – 176 p.